

AHOLI YASHASH JOYLARINI JOYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Abdualiyeva Shafolat xomdamovna

Assistent

Email: shafobdualieva86@gmail.com

Mirzomurotov Maqsudjon Farxod o'g'li

talaba

"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholi yashash joylari va ularni tegishli tartibda joylashtirilishi, rivojlantirish tartibi, ommaviy axborot vositalarining tarkibi, davlat shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, shaharsozlikni rivojlantirilishi usullari va barpo etilishi, aholi punktlarning bosh rejalari, topografik kartalari, insonlarning yashash faoliyati muhitini shakllantirishning kompleks sharoitlarini yaxshilashidan iboratligi to'g'risida aytib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda aholini joylashtirish tizimida shahar va qishloq aholi punktlari ularning joylashuvi, umumrespublika miqyosidagi tegishli loyihalarga asoslangan holatda joylashuvi, qishloq xo'jaligi korxonalarining shuningdek mintaqaviy joylashtirish tizimlarining tarkibiy qismlari sifatida loyihalashtirilishi lozimligi, muxandislik transport va boshqa turdagi infratuzilmalari va tamoyillari to'g'risida qisqacha ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Aholi yashash joylari, hududlar, loyihalar, shaharsozlik, aholi punktlari, topografik xaritalar, zonalar, hujjatlar, strategiya, taraqiyot.*

Aholi yashash joylarini joylashtirish va rivojlantirish, inson huquqlarini ta'minlash, hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishiga shu bilan bir qatorda shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlaridan iboratdir, aynan aholini joylashtirish tizimi, mavjud aholi punktlarini rivojlantirish hamda yangi aholi punktlarini barpo etish va ularning tegishli tartibda hududlarga solib boriladigan tarzda joylashtirishning shaharsozlik hujjatlari bilan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari, aholi punktining bosh rejasi, topografik xaritalari, yashash va faoliyat muhitini shakllantirishning kompleks sharoitlarini yaxshilashidan iboratdir.

Aholi punktlari hududiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydigan shaharsozlik hujjatlarini qonunda belgillangan tartibda rasmiylashtirish, hududlar chegaralarini bino va inshootlarni funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo'lishiga va turli xildagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo'ljallangan bo'lib, qurilish konstruksiyalardan iborat, ya'ni qurilish tizimi, shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishi va ulardan samarali foydalanish turlarini va shunga o'xshash ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Aholini joylashtirish tizimida shahar va qishloq aholi punktlarining joylashuvi, va ularning punktlari umumrespublika miqyosidagi joylashtirish tizimi va tarkibiga kiruvchi viloyatlar, tumanlar, qishloq xo'jalik korxonalarining joylashtirish tizimlari, shuningdek

mintaqaviy joylashtirish tizimlarining tarkibiy qismlari sifatida loyihalashtirilishi lozim, bunda joylashtirish tizimlari uchun yagona bo‘lgan ijtimoiy, ishlab chiqarish, muhandislik-transport va boshqa infratuzilmalar, shuningdek joylashtirish tizimlarining markazi yoki kichik markazi vazifasini bajaruvchi aholi punktining ta’sir doirasidagi istiqbolli rivojlanayotgan mehnat, madaniy-maishiy va rekreatsion aloqalar shakllanishini hisobga olishi zarur.

Aholi punktlarini loyihalashtirishda ularning joylashtirish tizimidagi bugungi kundagi va kelajakda tutadigan o‘rnini hisobga olish, ma’lumotlar asosida mazkur aholi punktlarining yuksakroq darajadagi joylashtirish tizimi markazlari hamda loyihalashtirilayotgan aholi punktlarning ta’sir zonasiga kiradigan manzilgoh va hududlar bilan ishlab chiqarish, mehnat, madaniy-maishiy va rekreatsion aloqalarining rivojlanishi belgilanishi kerak. Turli darajadagi joylashtirish tizimlari markazlari vazifasini bajaradigan aholi punktlarining ta’sir zonalarining o‘lchamlari tumanlarni rejalashtirish sxemalari va loyihalari bo‘yicha ishlanmalar asosida qabul qilinishi, shahar va qishloq aholi punktlarini rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishda ularning bo‘ysunganligi, ma’muriy-xo‘jalik ahamiyati ega bo‘lgan va ularning joylashtirish tizimlarida tutgan o‘rni va ahamiyati hisobga olinishi loyiha normalari asosida olib borilishidan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida aholini joylashtirish bosh tarhi (sxemasi)-aholini joylashtirish tizimlarini rivojlantirish, ulardan foydalanish, hududlarni, umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lib, muhandislik, transportga oid va ijtimoiy infratuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadlari va yo‘llarini belgilaydigan davlat shaharsozlik hujjatlari hisoblanadi.

Aholi punktlari guruhleri

Aholi,(ming kishi)	Shaharlar	Shahar posyolkalari	Qishloq aholi punktlari
O‘ta yirik	1000 dan ortiq	10 dan ortiq	5 dan ortiq
Yirik	250 dan 1000 gacha	5 dan 10 gacha	3 dan 5 gacha
Katta	100 dan 250 gacha	3 dan 5 gacha	1 dan 3 gacha
O‘rta	50 dan 100 gacha	3 gacha	1 gacha
Kichik	50 gacha		

Aholini joylashtirish tizimida shahar va qishloq aholi punktlarining joylashuvi shahar va qishloq aholi punktlari umumrespublika miqyosidagi joylashtirish tizimi va uning tarkibiga kiruvchi viloyatlar, tumanlar, qishloq xo‘jalik korxonalarining joylashtirish tizimlari, shuningdek mintaqaviy joylashtirish tizimlarining tarkibiy qismlari sifatida loyihalashtiriladi. Bunda joylashtirish tizimlari uchun yagona bo‘lgan ijtimoiy, ishlab chiqarish, muhandislik-transport va boshqa infratuzilmalar, shuningdek joylashtirish tizimlarining markazi va ularning vazifasini bajaruvchi aholi punktining ta’sir doirasidagi istiqbolli rivojlanayotgan mehnat, madaniy-maishiy va rekreatsion aloqalar shakllanishini hisobga olinishidan iboratdir .

Aholi punktlarini loyihalashtirishda ularning joylashtirish tizimidagi bugungi kundagi va kelajakda tutadigan oʻrnini hisobga olishda, mazkur aholi punktlarining yuksakroq darajadagi joylashtirish tizimi markazlari hamda loyihalashtirilayotgan aholi punktlarning taʼsir zonasiga kiradigan manzilgoh va hududlar bilan ishlab chiqarish, mehnat, madaniy-maishiy va rekratsion aloqalarining rivojlanishi belgilanishi lozim. Shu bilan bir qatorda turli darajadagi joylashtirish tizimlari markazlari vazifasini bajaradigan aholi punktlarining taʼsir zonalarining oʻlchamlari tumanlarni rejalashtirish sxemalari va loyihalari boʻyicha ishlanmalar asosida qabul qilinishi, shahar va qishloq aholi punktlarini rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishda ularning buysunganligi, maʼmuriy-xoʻjalik ahamiyati, joylashtirish tizimlarida tutgan oʻrni va ahamiyati hisobga olinishi loyiha normalari asosida olib borilishi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olganda, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022 – 2026 yillarda quyidagi yettita ustuvor yoʻnalishlaridan iborat:

- inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash;

- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

- maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda tegishli muammolarga yondashish;

- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq materiallariga va faol tashqi siyosatni olib borish usullaridan iboratdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 7.09. 2020 yildagi PF-6061-sonli farmoni
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenting 7.09. 2020 yildagi PQ-4819-sonli qarori
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.08. 2014yil 231 sonli qarori
4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2021yil 389 sonli qarori
5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31 dekabr 2001yil 492 sonli qarori
6. А.С.Кони́ков, В.В.Пути́лин. Гражданские, промышленные и сельскохозяйственные здания. Москва – 1980год.
7. Ю.В.Зайцев и др. Архитектура и строительные конструкции. Москва – 1983год.Ў
8. С.Г.Стронгин, Г.А.Шестак и др. Строительные конструкции. Москва – 1979год.
9. Н.Л.Русскиевич. Справочник по инженерно- строительному черчению. Киев – 1980год.

10. Л.Е. Линович Расчет и конструирование частей гражданских зданий Киев – 1972год.
11. Karimov Э. Q., Akhrorov A. Q. The characteristics of irrigated meadow-swamp soils and their quality //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – Т. 1138. – №. 1. – С. 012033.
12. E Q Karimov and A Q Akhrorov 2023 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1138 012033
13. Каримов, Э. К., Ахмадов, С. О. (2021). Изменение генезиса пустынно-песчаных почв при освоении. Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 279-282)
14. Karimov, E., Akhrorov, A., & Sh, T. (2022). Natural Geographical Zoning of Agricultural Land. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(2), 100-103.
15. Karimov E. K., Bobozhonov S. U., Mukhammadov K. M. Influence of the properties of irrigated soils on the productivity of the vobkent district EK Karimov //" Online-conferences" platform. – 2021. – С. 59-61.
16. Kodirovich, K. E. (2020). The condition and efficient use of agricultural land. Агропроцессинг, (SPECIAL).
17. Каримов, Э.К. (2021). Изменение свойств пустынно-песчаных почв Вабкентского района под влиянием орошения. Актуальные проблемы современной науки (pp. 101-103).
18. Karimov, E. Q. (2020). IMPROVEMENT OF SOIL QUALITY ASSESSMENT WITH OF INFORMATION TECHNOLOGIES. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 321-324).
19. Karimov, E. K., Bobozhonov, S. U., Mukhammadov, K. M., & Akhtamov, S. (2021, June). POSITION AND EFFECTIVE USE OF LAND FOR AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 50-53).
20. Karimov E, Ahrorov A, & Tolibov Sh. (2022). FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LAND AND WATER RESOURCES. Euro-Asia Conferences, 39–41.
21. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).
22. Qodirovich, K. E., Obidovich, A. B., & Kurbonovich, A. A. (2022). Developing the System of Efficient use of Land in Household in Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 15, 249-253.
23. Karimov Erkin Kadyrovich, Nuriddinov Otabek Xurramovich, & Ahrorov Abdullo Kurbonovich. (2022). HISTORY OF GEOGRAPHICAL INFORMATION SYSTEMS AND ITS IMPORTANCE TODAY. Euro-Asia Conferences, 98–101.
24. Obidoglu, A. B., & Kodirovich, K. E. (2021). Protection of Property in Uzbekistan and Further Improvement of Private Property. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(3), 25–27.

25. Роль мультидисциплинарных фермеров в условиях реализации состояния ирригированных земель / Э. К. Каримов, М. Ш. у. Савриев, К. Х. у. Жураев [и др.] // Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – № 10-7(30). – С. 93-96. – EDN XRKMKT.

26. Karimov, E. Q. ., Mukhamadov, K. M. ., & Saidov, S. .S. . (2022). Land Users Register Land Areas and Digital MAP Updates. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 523-529.

27. Karimov, E., Abdualiyeva, Sh. (2021, April). THE IMPORTANCE OF THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE USE OF LAND RESOURCES. In E-Conference Globe (pp. 35-37).

28. Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 911-915.